BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ TARAQQIYOT HALOLLIKDAN BOSHLANADI

Korrupsiya har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadigan jirkanch illat. Bu illat davlatning konstitutsiyaviy asoslarini va qonun ustuvorligini zaiflashtiradi hamda xalqning davlat siyosatiga ishonchini keskin susaytiradi, davlat va jamiyatda sog‘lom muhitning qaror topishi, barqarorligi, tinchligi va taraqqiyoti uchun xavf soladi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish, jamiyatda ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, chek qo‘yish, ularning oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

“O‘zmetkombinat” AJ faoliyatida ham bu borada izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Korxonada Komplaens xizmati tomonidan korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va baholash, ularning oldini olish, ichki nazorat tizimini takomillashtirish hamda xodimlar o‘rtasida halollik va mas’uliyat madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Korrupsiya iqtisodiy yo‘qotishlar bilan cheklanib qolmaydi. U mehnat jamoasida adolat tamoyiliga putur yetkazadi, ishonch muhitini zaiflashtiradi, boshqaruv samaradorligini pasaytiradi hamda korxonaning ishbilarmonlik nufuziga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, davlat xaridlari, shartnomalar tuzish, tender va tanlov jarayonlari, kadrlar siyosati, mol-mulk va moddiy boyliklarni boshqarish kabi yo‘nalishlarda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishning eng samarali omillaridan hisoblanadi.

Har bir xodim manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi, xizmat vakolatlaridan shaxsiy yoki boshqa shaxslar manfaati yo‘lida foydalanmasligi, noqonuniy sovg‘alar, moddiy manfaatdorlik yoki har qanday g‘ayriqonuniy ta’sir o‘tkazishga urinishlarni qat’iy rad etishi lozim. Shu bilan birga, korrupsiyaviy xavf yoki qonunbuzilish holatlari haqida o‘z vaqtida Komplaens xizmatiga murojaat qilish huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Kombinatda ishchi-xodimlarning murojaatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilish va ko‘rib chiqish tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida “Ishonch telefoni” ishlab turibdi.

Tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali yo‘li – uning oqibatlarini bartaraf etish emas, balki kelib chiqish sabablarini barvaqt aniqlash va oldini olishdir. Bu esa har bir xodimning faol ishtiroki, shaxsiy mas’uliyati va halol mehnatga bo‘lgan munosabatiga bevosita bog‘liq.

Bugun halollik, shaffoflik va qonuniylik har qanday zamonaviy tashkilotning asosiy qadriyatlariga aylanmoqda. Metallurgiya kombinati jamoasi ham aynan shu tamoyillarga tayangan holda korrupsiyadan xoli ish muhitini yaratish, qonun ustuvorligini ta’minlash va korporativ boshqaruv madaniyatini yanada takomillashtirish yo‘lida izchil faoliyat yuritmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir rahbar va har bir xodimning umumiy mas’uliyatidir. Halol mehnat, adolatli qarorlar va shaffof munosabatlar orqali biz nafaqat korxonamiz nufuzini yuksaltiramiz, balki mamlakatimizda korrupsiyadan xoli, adolatli va qonun ustuvorligi ta’minlangan jamiyat barpo etishga munosib hissa qo‘shamiz.

B.J.RAZIKOV
“O‘zmetkombinat” AJ Ekologiya va atrof muhit muhofazasi bo‘limi boshlig‘i.